

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi 2024-yil "25" iyul 279/9
Madaniyat vazirligining
2024-yil "25" iyul 01-17-15
Yoshlar ishlari agentligining
2024-yil "29" iyul 01-04/21
Fanlar akademiyasining
2024-yil "25" iyul 2/5.
O'zbekiston Badiiy akademiyasining
2024-yil "25" iyul 01-03-03
-son qaroriga 5-ilova

**“Islahotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika
ilmiy-ma'rifiy ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlari, talabalar o'rtasida “Islahotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma'rifiy ko'rik-tanlovini (keyingi o'rinlarda – “ko'rik-tanlov”, deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur ko'rik-tanlov “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son qarorining ilovasi bilan tasdiqlangan “Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi”ning 22-bandida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirishga yo'naltirilgan.

3. Ko'rik-tanlov quyidagi nominatsiyalar bo'yicha o'tkaziladi:

“Eng faol milliy g'oya va ma'naviyat targ'ibotchisi” nominatsiyasi;

“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha eng yaxshi kafedra” nominatsiyasi;

“Eng yaxshi tutor” nominatsiyasi;

“Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi raisi” nominatsiyasi;

“Eng faol islohotlar targ'ibotchisi” nominatsiyasi.

4. Ko'rik-tanlovni yuqori saviyada o'tkazish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar hamda oliy ta'lim muassasalari mas'ul tashkilotlar etib belgilanadi.

II. Ko'rik - tanlovning maqsad va vazifalari

5. Pedagog xodimlar, talaba-yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar to'g'risida xabardor qilib

borish, ta'lim muassasasi faoliyatining ochiqqligi va oshkoraligini, axborot erkinligini ta'minlashdek demokratik islohotlarni chuqur o'rganish, shuningdek, ular ongida yangilanayotgan O'zbekistonda uchinchi renessansning poydevori qo'yilganligiga ijtimoiy munosabatni hamda yurt tinchligi, vatan ravnaqini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan misli ko'rilmagan yutuqlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usini, mafkuraviy immunitetini shakllantirish maqsadida tashkil etiladi.

6. Ko'rik-tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko'zda tutiladi:

yoshlarni "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash!" g'oyasi atrofida birlashtirish, ta'lim va tarbiya tizimi uzviyligini ta'minlash;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish;

oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish;

"Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-axloqiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish;

aholi, ayniqsa talaba-yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash;

respublika ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar, bilim olayotgan yoshlarning ijodiy faolligi va siyosiy madaniyatini oshirish;

yoshlar ongiga O'zbekistonda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari olib borilayotgan islohotlar mazmunini tushunish va uni qadrlash darajasini aniqlash;

mamlakatimizda intellektual mulkni aniqlash va ularning ijodiy faoliyatini har jihatdan qo'llab-quvvatlashdan iborat.

III. Ko'rik-tanlovni tashkil etish va o'tkazish

7. Ko'rik-tanlovning *"Eng faol milliy g'oya va ma'naviyat targ'ibotchisi"*, *"Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha eng yaxshi kafedra"*, *"Eng yaxshi tyutor"* va *"Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi raisi"* nominatsiyalarida oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari, *"Eng faol islohotlar targ'ibotchisi"* nominatsiyasida oliy ta'lim muassasasining talabalari ishtirok etishi mumkin.

8. Ko'rik-tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar 1-ilovaga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limiga

(xorijiy OTMlarda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mas'ullarga) arizalar bilan murojaat qilib, o'zi haqidagi tegishli ma'lumotlarni taqdim etadi.

9. Arizalar **har yili 15-avgustdan 15-sentabrgacha** qabul qilinadi.

10. Ko'rik-tanlov 2 (ikki) bosqichda bo'ladi hamda uning adolatli o'tishini ta'minlash maqsadida Hakamlar hay'ati tashkil etiladi.

Bular: Respublika bosqichi uchun – Tashkiliy qo'mita;

Oliy ta'lim muassasasi bosqichi uchun – oliy ta'lim muassasasi mas'ul hisoblanadi.

Hakamlar haya'ti tarkibi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya va uning hududiy bo'limlari, oliy ta'lim muassasasining pedagog xodimlari hamda boshqa tegishli mutaxassislardan tashkil topishi mumkin.

11. **Birinchi bosqich** – arizalar qabul qilish va saralash bosqichi bo'lib, bunda ko'rik-tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzodlardan arizalar qabul qilinadi hamda ular **2 ta shart** bo'yicha saralanadi.

1-shart. Nomzodlarning nominatsiya bo'yicha amalga oshirgan ishlarining samaradorligi va natijadorligi tahlili (hujjatlar asosida) –**40 (qirq) ball;**

2-shart. Nomzodlarning ma'naviy, mafkuraviy siyosiy, huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyati taqdimoti (5-7 daqiqa davomida proyektor ekran orqali) hamda sohaga doir savol-javob shaklida suhbat asosida – **60 (oltmish) ball.**

2-shart bo'yicha jami **100 (yuz) ball** to'planadi.

1-shart har yili 20-sentabrdan 1-oktabr kuni oralig'ida o'tkaziladi.

2- shartlar har yili 1-oktabrdan 10-oktabr kuni oralig'ida o'tkaziladi.

Nominatsiyalar bo'yicha 2 ta shart natijalariga ko'ra, eng yuqori ball to'plagan g'olib (nizomning 7-bandiga asosan) ko'rik-tanlovning keyingi bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

12. Ko'rik-tanlovning har bir nominatsiyasi bo'yicha oliy ta'lim muassasasi bosqichida g'olib deb topilgan ishtirokchilarning hujjatlari har yili 20-oktabrdan kechiktirmagan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan 2-ilovaga muvofiq Tashkiliy qo'mitaga yuboriladi.

13. **Ikkinchi bosqich** – Respublika bosqichi bo'lib, har yili oktabr-noyabr oylari davomida 2 ta shart bo'yicha o'tkaziladi. Ushbu bosqich ishtirokchilari Tashkiliy qo'mita tomonidan tashkil etilgan Hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.

1-shart. Har yili 25-oktabrdan 5-noyabr kunlari oralig'ida nomzodlarning hujjatlari saralanadi va yo'nalishi bo'yicha amalga oshirgan ishlari eng yuqori baholangan 15 nafargacha nomzod keyingi shartda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

2-shart. Har yili 5-noyabr 15-noyabr kunlari oralig'ida nomzodlar tanlagan nominatsiyasi bo'yicha ma'naviy, mafkuraviy siyosiy, huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyati amalga oshirgan ishlari haqida 5-7 daqiqa davomida taqdimoti (proyektor ekran orqali) hamda sohaga doir savollardan suhbat asosida o'tkaziladi. Hakamlar hay'ati tomonidan 1-, 2-, 3-o'rinlarga munosib nomzodlar aniqlanadi.

14. Belgilangan muddatdan kech taqdim etiladigan hujjatlar qabul qilinmaydi.

15. Mazkur tanlovda oldingi yillarda ishtirok etib, Respublika bosqichida 1-,2-,3-o'rinlarni egallagan nomzodlar 2 yil davomida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

16. Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchilarga qo'yilgan ballar teng bo'lib qolganda, Hakamlar hay'ati raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

17. Ko'rik-tanlovning yakuniy natijalari Hakamlar hay'atining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Ko'rik-tanlov shartlari va baholash mezonlari

18. Ko'rik-tanlovning Oliy ta'lim muassasalarida birinchi bosqichining birinchi sharti, Nomzodlarning nominatsiya bo'yicha amalga oshirgan ishlarining samaradorligi va natijadorligi tahlili (hujjatlar asosida), nomzodlar yo'nalish bo'yicha turli mavzularda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, viktorinalar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etganligi, shuningdek aholi, ayniqsa talaba-yoshlarni jismonan sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish borasida amalga oshirgan ishlari hamda natijalari to'g'risida aniq va asosli ma'lumotlar, shuningdek, talabalar turar joyi, ijarada va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalar bilan olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar hisobotlari, beshta muhim tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlar **(maksimal ball – 10 ball);**

Bular quyidagicha baholanadi:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Nomzodning tanlagan nominatsiyasi yo'nalishida yoshlar (tengdosh) bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlarining o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi	10
1.1.	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifati darajasi va yo'nalishi bo'yicha olib borilgan ishlar samaradorligi	3

1.2.	Talabalar turar joylarida yoshlarning dam olishi va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilishi, shuningdek, ijara va yaqin qarindoshinikida yashovchi talaba-o'quvchilar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati	2
1.3.	Korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ishlar natijadorligi hamda professor-o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan xabardorligi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy sohalaridagi bilim darajasi ko'rsatkichi hamda faoliyati yuzasidan OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlari, ilmiy-ommabop maqolalari (<i>"Axborot va tyutorlik soatlari" tahlili va boshqa hujjatlar</i>)	3
1.4.	Ta'lim muassasasida 5 ta muhim tashabbusning ijrosida nomzodning o'rni (<i>Tashkil etgan klublari va qamrab olinganlar kontingenti (umumiy kontingentga nisbatan foizda)</i>) hamda bu borada amalga oshirgan ishlar natijadorligi	2

Shuningdek, nomzodlarning oliy ta'lim muassasasidagi faoliyati davomida qo'lga kiritgan yutuqlari, jumladan, faxriy yorliqlar, sertifikatlar, diplom, tashakkurnomalari hamda ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalari, davlat mukofotlari va ko'krak nishoni bilan (so'nggi ikki yil davomida qo'lga kiritgan yutuqlari inobatga olinadi) taqdirlangan ishlar **(maksimal ball – 40 ball)**.

Bular quyidagicha baholanadi:

t/r	Yutuqning darajasi	baholanishi	
1.	Ta'lim muassasasi yoki tuman (shahar) miqyosida (faxriy yorliq, sertifikat,diplom, tashakkurnoma)	2 ball	
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat miqyosida (faxriy yorliq, sertifikat,diplom, tashakkurnoma)	2 ball	
3.	Respublika miqyosida (faxriy yorliq, sertifikat,diplom, tashakkurnoma)	2 ball	
4.	Xorijiy davlatlar miqyosida (faxriy yorliq, sertifikat,diplom, tashakkurnoma)	3 ball	
5.	Ko'krak nishoni (1+)	4 ball	
6.	Davlat mukofoti (1+)	4 ball	
7.	Ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalar (mahalliy)	(1-4) 2	(5-8) 2
8.	Ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalar (xalqaro)	(1-4) 2	(5-8) 2
9.	Ilmiy-ommabop jurnallardagi maqolalar (xorijiy)	(5-8) 2	(5-8) 3
	Jami ball	30 ball	

19. Ko'rik-tanlovning respublika bosqichi 2 ta shart bo'yicha o'tkaziladi hamda Hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.

1-shart. Nomzodlarning hujjatlari ushbu nizomning 18-bandiga muvofiq saralanadi va amalga oshirgan ishlari eng yuqori baholangan 15 nafargacha nomzod Respublika bosqichi 2-shartida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

2 shart. Nomzodlar tanlagan nominatsiyasi bo'yicha ma'naviy, mafkuraviy siyosiy, huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyati amalga oshirgan ishlari haqida taqdimoti (5-7 daqiqa davomida proyektor ekran orqali) namoyish etiladi. Sohaga doir savollardan suhbat asosida o'tkaziladi, Hakamlar hay'ati tomonidan 1-, 2-, 3-o'rinlarga munosib nomzodlar aniqlanadi.

Barcha shartlar bo'yicha umumiy ballar qo'shib hisoblanganda, eng yuqori ko'rsatkichga erishgan ishtirokchilar o'rtasida I, II va III o'rinlarni taqsimlash Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan hal etiladi.

V. Ko'rik-tanlov g'oliblarini taqdirlash

20. Ko'rik-tanlovning oliy ta'lim muassasasi (birinchi) bosqichida yuqori 3 ta o'rinni egallagan ishtirokchilar oliy ta'lim muassasalari tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar, shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan qatnashchilar uchun ta'lim muassasasi rahbarining faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi.

21. Ko'rik-tanlovning respublika bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilarni rag'batlantirish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladi.

22. Ko'rik-tanlov g'olibi va sovrindorlari quyidagi tartibda pul mablag'lari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining diplomlari hamda statuetkalari bilan rag'batlantiriladi:

t/r	Nominatsiya nomi	Egallagan o'rni	Diplom va statuetka	Pul mukofotining miqdori
1.	“Yilning eng faol milliy g'oya va ma'naviyat targ'ibotchisi”	1-o'rin	I darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 45 baravari
		2-o'rin	II darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari
		3-o'rin	III darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari
2.	“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha eng yaxshi kafedra”	1-o'rin	I darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 45 baravari
		2-o'rin	II darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari

		3-o‘rin	III darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari
3.	“Eng yaxshi tyutor”	1-o‘rin	I darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 45 baravari
		2-o‘rin	II darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari
		3-o‘rin	III darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari
4.	“Eng faol xotin-qizlar maslahat kengashi raisi”	1-o‘rin	I darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 45 baravari
		2-o‘rin	II darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari
		3-o‘rin	III darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 35 baravari
5.	“Eng faol islohotlar targ‘ibotchisi”	1-o‘rin	I darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari
		2-o‘rin	II darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari
		3-o‘rin	III darajali diplom va statuetka	Bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari

23. Ko‘rik-tanlovning respublika bosqichi qatnashchilariga “Islohotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovi ishtirokchisi sertifikati beriladi.

24. Ko‘rik-tanlovning respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq zarur sarf-xarajatlar uchun mablag‘ Tashkiliy qo‘mita tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar asosida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan Vazirlik huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazining tegishli hisob raqamiga o‘tkazib beriladi hamda g‘oliblarni taqdirlash tadbiri yuqori saviyada tashkil etiladi.

VI. Yakuniy qoidalar

25. Ko‘rik-tanlovning ishchi tili: Davlat tili.

26. Ko‘rik-tanlovga kelib tushgan hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda 6 oy muddat davomida saqlanadi.

27. Ko‘rik-tanlovlar natijalari OAVda e’lon qilib boriladi.

28. Ko‘rik-tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog‘liq murojaat(e’tiroz)lar qabul qilinmaydi.

“Islahotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika
ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovini o‘tkazish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga 1-ilova

**“Islahotlar bilimdoni” keng tarmoqli respublika
ilmiy-ma’rifiy ko‘rik-tanlovi ishtirokchisi
ARIZA ANKETASI**

F.I.SH _____

Nominatsiya nomi _____

Tug‘ilgan yili, oy va kuni _____

Millati _____

Lavozimi (to‘liq) _____

Pasport ma’lumoti (Seriya va raqami) _____ № _____

Kim tomondan va qachon berilgan _____

Talaba-shogirdining F.I.Sh (agar ishtirok etsa) _____

Tug‘ilgan yili, oy va kuni _____

Fakulteti (yo‘nalishi) va kursi _____

Pasport ma’lumoti (Seriya va raqami) _____ № _____

Kim tomondan va qachon berilgan _____

imzo

sana

Foto